

“Kitobni sev-ardoqla” mavzusida tadbir ssenariysi

Kitob – insonning yaqin do`sti, suhbatdoshi, sirdoshi. U kishining dunyoqarashi, so`z boyligini oshiradi. Amerikalik olim, yozuvchi Nil Geyman olib borgan tadqiqot natijasi shuni ko`rsatdiki, kitob mutolaa qilmaydigan bolalar kelajakda bezori bo`lib ulg`ayishi ehtimoli yuqori ekan. Shu bilan birga, kitob o`qish odamlarni empatiyaga – faqat o`z xohish-istaklari va manfaatlarini o`ylashdan voz kechib, umumiylar maqsad yolida birlashishga undaydi. Xitoylik olimlar esa AQShning butun dunyoni zabit etgan Apple, Microsoft kompaniyalari sirini bilish maqsadida u yerda o`z tadqiqotchilarini yuborganlar. Izlanishlar shuni ko`rsatdiki, nanotexnologiyalar ixtirochilari bolalikda fantastik asarlar mutolaasiga mehr uyg`otishimiz, asrlar osha ajodolar ilmiy, adabiy merosini qadrlashga, unda ehtiyyotkorona munosabatda bo`lishga o`rgatishimiz muhim. E`tiboringizga havola etilayotgan tarbiyaviy soat ishlanmasi aynan shu maqsadlarga erishishga qaratilgan.

Maqsadlar: mashg`ulotlar davomida o`quvchilarga kitob turlari haqida ma`lumot berish, bir kitob nashriga tayyorlanib o`quvchilar qo`liga yetib kelgunicha ketadigan mehnatni qadrlash, kitoblarga ehtiyyotkorona munosabatda bo`lishni shakllantirishda eng yaqin yordamchi ekanini tushuntirish.

Metodlar: suhbat, savol-javob, “Davom ettir” oyini, klaster.

Jihozlar: kompyuter, proyektor, slaydlar yoki kitob turlari haqida ma`lumot beruvchi plakatlar, kartochkalar, biror ertak qahramoni rasmi.

Mashg`ulotning borishi

- I. **Tashkiliy qism.** O`quvchilarni darsga hozirlash.
- II. **O`qilgan mavzuni mustahkamlash.** Qisqa vaqt ichida o`quvchilar bilan o`tgan tarbiyaviy soat mavzu yuzasidan fikr almashiladi. O`qituvchi mavzuni xulosalaydi.
- III. **Yangi mavzuni tushuntirish.**


O`quvchilarga uyda o`zlarininig didi va istaklariga qarab, qo`lbola kitobcha yasab kelish topshirig` beriladi va mehnat mahsullari bo`lmish kitob haqida “Mening sevimli kitobcham” mavzusida qisqagina taqdimot tayyorlash aytiladi. Tarbiyaviy soatda muktab kutubhonachisini ham taklif qilish mumkin.

O`qituvchi: — Bolalar, siz har kuni uyda, muktabda, do`konlarda turfa xil kitoblarni ko`rasiz. Lekin nima uchun «Kitob — insonning eng yaqin do`sti, hamrohi» deyishadi, bu haqda hech o`ylab ko`rganmisiz?

- 1- **o`quvchi:** — Chunki, biz kitoblar orqali ilm o`rganamiz. Muktabda va uyda darsliklarimizdan ko`p qiziqarli narsalar bilib olamiz.
- 2- **o`quvchi:** — Kichkinaligimda uyqudan oldin buvim menga ertak kitoblar o`qib berardilar...
- 3- **o`quvchi:** — Men esa ulardagi suratlarni tomosha qilib o`tirishni yaxshi ko`rardim.

O'qituvchi: — Yaxshi. Bilasizmi, birgina kitob yozilishi uchun kishilar yillab izlanishadi. Keyin u kitoblar qo'lingizga yetib kelgunga qadar unga ko'plab kishilarning mehnati singadi.
(*Kitob chop etish jarayoni slaydlar orqa, namoyish etiladi*).

O'qituvchi: — Bolajonlar, kitoblarning qanday turlarini bilamiz?
(*O'quvchilarning javoblari klaster usulida doskaga yoziladi va o'qituvchi tomonidan to'ldirilib boriladi*).



O'qituvchi: — Hamma zamonlarda ham kitobga katta ehtirom bilan qarashgan, unga ehtiyyotkorona munosabatda bo'lishgan. Ocharchilik va urush yillarida kishilar nochor xolatda qolganlarida ham, uyda bor bisotlarini sotishgan, biroq kitoblarni bebaho buyum sifatida asraganlar.

O'quvchi: — Ustoz, xatto yenishga ovqatlari bo'limganda ham, kitobni yegulikka almashishmaganmi?!

O'qituvchi: — Yo'q. Boisi, kitob kishini bemehr, beshafqat bo'lishdan asraydi, ezgu fazilatlarni tarbiyalaydi. Bobolarimiz shu narsani bilganlari uchun ham, kitoblarni juda qadrlashgan.

Sinfga Kitob kirib keladi:
Tanishaylik, men kitob,
Asl ilmlarga kon.
Boylik beray behisob,
Bo'lsang agar qadrdon.
Lekin yirtib, burdalab,

Kamaytirma varag'im.
Sendan yana bir talab,
Iflos qilma hech yog'im.
Kitob o'zi bir olam,
Vatan ichida vatan.
Kitobni ko'p o'qigan
Dono bo'lar hammadan.
Kitobimda qo'zichoq
Dikir-dikir chopadi.
Quvsam, qochib o'sha choq
Onasini topadi.
Har so'zni kitobimdan
Lola kabi teraman.
Ustoz-muallimlarga
Sovg'a qilib beraman.

O'qituvchi: — Xush kelding, Kitobjon. Hozirgina o'quvchilarga sen haqingda gapirib turgan edim.

Kitob: — Ha, to'g'ri, avvallari qadrim baland edi, biroq hozir meni avvalgidek avaylashmaydi. Varaqlarimni yirtib, jonimga ozor berishadi, yuzlarimga rasmlar chizib, husnimni buzishadi. Bundan ko'nglim juda ozor chekadi.

O'qituvchi: — Mening o'quvchilarim yaxshi, bunday qilishmaydi. Bugundan boshlab esa boshqa o'rtoqlariga ham seni avaylash kerakligini aytishadi, «yarador» do'stlaringni «tuzatishadi». Shundaymi, bolajonlar?

O'quvchilar: — Ha.

Kitob: — Rahmat, xursand bo'ldim.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O'qituvchi: — O'tgan darsda sizlarga «Sevimli kitobcha»ngizni yasab kelishni aytgandim. Marhamat, endi o'zingiz ham noshirlik tajribangiz bilan o'rtoqlashing. O'quvchilar o'zlari yasab kelgan kitobchalari haqida gapirib, uni yasashga, bezashga ketgan mehnatlari, vaqtiali haqida gapirib berishadi. Keyin o'quvchilarning «Sevimli kitobcha»lari sinf kutubxonasidan joy oladi.

Yuqorida o'qituvchi bergen ma'lumotlardan kelib chiqib, o'quvchilar o'zlari yasab kelgan kitoblari qanday turga kirishini aytadilar. Kitobjon esa ularning to'g'ri javob berishlariga yordamlashadi.

Kitobjon: — Barakalla , bolajonlar! Bu kitobchalarni mehr bilan tayyorlaganingiz ko'rinish turibdi. Rahmat.

O'qituvchi: — Kitobjon, shuncha yo'l bosib kelibsiz, bolalarga bir ertak aytib bermaysanmi?

Kitob: — Albatta, bajonidil. (*Kitob ertak qahramoni tushirilgan rasmni qo'liga olib, o'quvchilarga ertak so'ziay boshlaydi (ertak darslikdan yoki kutubxonada o'quvchilarga yetadigan miqdorda bo'lgan kitobdan tanlangani ma'qul).* Yarmiga kelib esa, «*Davomini bilishni xohlasangiz, mana bu kitobdan o'qib oling. Shunda qahramonning sarguzashtlari nima bilan tugaganini bilib olasiz*», deydi.)

V. Tarbiyaviy soatni yakunlash.

O'qituvchi: — Xo'sh, bolajonlar, bugun kitob haqida nimalarni bilib oldik?

O'quvchilar javobi tinglanadi. Xulosa yasaladi.

VI. Uyga vazifa. Kitobjon boshlab bergan ertakni o'qib kelish. O'quvchilar ota-onalari, buvi-buvalaridan varaqlari yirtilgan, betlariga chizib tashlangan kitoblarni tuzatish yo'llari haqida so'rab kelishlari va keyingi mashg'ulotga bilib olganlarini do'stari bilan o'rtoqlashishlari kerakligi aytildi.

Lazokat Ahmedova,
Toshkent shahar Chilonzor
tumanidagi 281- mактабning
boshlang'ich sinf o'qituvchisi.